

AGRAR SEKTORDA INNOVATSION TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI

Matrasulov Bahodir Erbutayevich

Guliston davlat universiteti,

“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20812477>

Annotatsiya. Mazkur tezisda agrar sektorda innovatsion tizimlarni rivojlantirish va boshqarishning nazariy asoslari yoritilgan. Innovatsion menejmentning evolyutsion rivojlanish bosqichlari, milliy innovatsion tizimlarning mazmuni hamda agrar innovatsion ekotizimning tarkibiy elementlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda agrar innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion tizim, innovatsion menejment, agrar sektor, innovatsion infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, qishloq xo‘jaligi.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida innovatsiyalar iqtisodiy o‘rishning muhim omiliga aylandi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish moddiy resurslar bilan bir qatorda intellektual kapital, bilim va institutsional mexanizmlarga ham tayanadi.

Agrar sektorning murakkab va ko‘p funksiyali xususiyati innovatsion boshqaruvning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli innovatsion tizimlarni shakllantirish va boshqarish masalalari iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion menejmentning evolyutsiyasi

Innovatsion menejmentning rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Birinchi avlod modeli – “texnologik itarish” modeli bo‘lib, unda innovatsiyalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijasida yuzaga keladi deb qaralgan. Ikkinchi avlod modeli innovatsiyalarni iste‘molchilar talabi va bozor ehtiyojlari bilan bog‘laydi.

Uchinchi avlod – interaktiv modelda innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati korxona ichki bo‘linmalari hamda tashqi hamkorlar o‘rtasidagi samarali aloqalarga bog‘liq deb hisoblanadi. To‘rtinchi avlod integratsiyalashgan modelida ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlari o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Beshinchi avlod tarmoqli modelida esa innovatsion tarmoqlar va hamkorlik ekotizimlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinchi avlod bilimga yo‘naltirilgan model bo‘lib, korxonaning intellektual kapitali va nomoddiy aktivlarini boshqarishga asoslanadi.

Mazkur evolyutsiya innovatsion faoliyatda integratsiya, hamkorlik va bilimlar boshqaruvining ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Milliy innovatsion tizim va agrar sektor

Milliy innovatsion tizim konsepsiyasi innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirish jarayonida ishtirok etuvchi institutlar hamda tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar majmuasini ifodalaydi. Ushbu tizimning samarali faoliyati ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Agrar sektorda innovatsion tizim qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan. Bunda davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, fermer xo'jaliklari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin egallaydi.

Innovatsion tizimning asosiy vazifalari innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion siklning barcha bosqichlarini qamrab olish hamda tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchanlikni ta'minlashdan iborat.

Agrar innovatsion ekotizim va innovatsion infratuzilma

Agrar innovatsion ekotizim qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va ommalashtirishga xizmat qiluvchi institutlar, tashkilotlar va subyektlarning o'zaro bog'langan tizimidir. Mazkur tizimning samarali faoliyat yuritishi resurs va institutsional ta'minotga bog'liq.

Resurs ta'minoti moliyaviy mablag'lar, kadrlar salohiyati, moddiy-texnik baza va axborot resurslarini qamrab oladi. Institutsional ta'minot esa normativ-huquqiy baza, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va innovatsion infratuzilmadan iborat.

Qishloq xo'jaligida innovatsion tizimlarning faoliyat yuritishi quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- innovatsion faoliyat subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya;
- ilmiy yangiliklarning ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilishi;
- davlatning faol qo'llab-quvvatlashi;
- hududiy innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish.

Innovatsion infratuzilma innovatsion jarayonlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Uning tarkibiga ishlab chiqarish-texnologik markazlar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, moliyaviy institutlar, axborot-konsalting markazlari hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimi kiradi.

O'zbekistonda agrar innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda agrar innovatsion tizimni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi tavakkalchiliklar, innovatsion mahsulotlarga talabning noaniqligi hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishdagi muammolar mavjud.

Agrar innovatsion siyosat quyidagi ustuvor yo'nalishlarga asoslanishi lozim:

- ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishni strategik rejalashtirish;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarini qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- innovatsion faoliyat uchun qulay huquqiy muhit yaratish.

Agrar sektorda innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu mexanizm ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, innovatsion rivojlanishning muhim sharti sifatida malakali kadrlar tayyorlash, yosh olimlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va axborot infratuzilmasini takomillashtirish zarur.

Xulosa

Agrar sektorni innovatsion rivojlantirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Innovatsion menejmentning evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish integratsiyalashgan, tarmoqli va bilimga asoslangan boshqaruv modellariga tayanadi.

Qishloq xo'jaligida innovatsion tizimlarni shakllantirish davlat, ilmiy muassasalar, ta'lim tashkilotlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali agrar sektorning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Freeman C. *Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan*. – London: Pinter Publishers, 1987.
2. Nelson R.R. *National Innovation Systems: A Comparative Analysis*. – New York: Oxford University Press, 1993.
3. Lundvall B.A. *National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning*. – London: Pinter Publishers, 1992.
4. Ashurmetova N. Agrar sohada innovatsion siyosatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari. – Toshkent.
5. Avazxodjayeva D.M. Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni boshqarish va rivojlantirish masalalari. – Toshkent.